

5-sinf ona tili. III chorak

Matn ustida ishlash (25 ball).

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- Matnni tushunadi, matn mazmuniga mos sarlavha topa oladi;
- bosh harflar, qo'shib yozish, chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalariga amal qiladi;
- sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunadi va nutqida qo'llay oladi;
- so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini bir-biridan farqlaydi;
- o'zlashgan, yangi paydo bo'lgan, tarixiy va arxaiik so'zlarni ajrata oladi.

Alisher Navoiy hazratlari Samarqandda o'qib yurgan kezlarida Buxoroyi sharifga borishni orzu qilibdilar va karvonda Buxoroga yo'l olibdilar. Karvon yo'l yurib, Karmanadan o'tib Malikrabortga kelib to'xtabdi va dam olibdilar. Meshlarni to'ldirib suv olibdilar. Karvonda ketayotgan Navoiy yon atrofidagi cho'lu sahrolarni kuzatib, o'yga tolibdilar. Malikrabort va Sardobani barpo etganlar ruhiga tilovat qilibdilar. "Qani endi, mening Farhodlarim shu joylarni obod qilsalar, suv chiqarib, bog'rog'lar barpo qilsalar, imoratlar, yo'llar, masjid madrasalar, dorush shifolar barpo etsalar, sahrolar o'rnida go'zal bir saltanat bunyod bo'lsa", deb orzu qilgan ekanlar.

(“El desa Navoiyni” kitobidan)

Matn ustida ishlash uchun topshiriqlar.

1. Matnni o'qing, matn mazmuniga mos sarlavha qo'ying. (5 ball).
2. Matndan chiziqchaning qo'llanilishiga oid imlo xatoga yo'l qo'yilgan so'zlarni topib, to'g'rilab ko'chiring. (5 ball).
3. **Kez** (*payt*), **yon** (*taraf, atrof*), **o'y** (*o'yga tolmoq, fikr yuritmoq*) so'zlarining shakldoshini aniqlab, ularning izohini yozing (5 ball).
4. **Ruh - rux; bunyod – bunyot; masjid – machit** kabi juftliklar orasidan paronim juftliklarni aniqlang. (5 ball).
5. Matn tarkibidan eskirgan so'zlarni aniqlab, ularni tarixiy va arxaiik so'zlarga ajratib yozing. (5 ball).

Matn ustida ishlash uchun berilgan topshiriqlarning baholash mezonlari (25 ball)		
1. Matnni tushunishi va unga sarlavha qo‘ya olishi		5 ball
sarlavha matn mazmunini to‘liq qamrab olgan, shuningdek, diqqatni tortadigan bo‘lsa		5 - 4 ball
sarlavha matn mazmunini qisman qamrab olgan, shuningdek, diqqatni tortadigan bo‘lsa		3 - 1 ball
sarlavha matn mazmuniga mos kelmasa		0 ball
2. Matndagi imlo qoidalariga e‘tibor qaratib, imlo qoidalariga amal qilinmagan so‘zlarni aniqlay olishi		5 ball
Matn tarkibidan chiziqcha bilan yozish, qo‘shib yozish, bosh harflar imlosi kabi imlo qoidalariga e‘tibor qaratib, imlo qoidalariga amal qilinmagan so‘zlarni aniqlay olsa		5 - 4 ball
Matn tarkibidan chiziqcha bilan yozish, qo‘shib yozish, bosh harflar imlosi kabi imlo qoidalariga e‘tibor qaratib, imlo qoidalariga amal qilinmagan so‘zlarni qisman topa olsa		3 - 1 ball
Matn tarkibidan chiziqcha bilan yozish, qo‘shib yozish, bosh harflar imlosi kabi imlo qoidalariga e‘tibor qaratsa-da, imlo qoidalariga amal qilinmagan so‘zlarni topa olmasa		2 - 1 ball
3. Matndan keltirilgan so‘zlarning shakldoshini aniqlay olishi		5 ball
Matndan keltirilgan so‘zlarning shakldoshini aniqlay olsa hamda ularning mazmunini to‘g‘ri izohlasa		5 ball
Matndan keltirilgan so‘zlarning shakldoshini aniqlay olsa hamda ularning mazmunini qisman izohlasa		4-3 ball
Matndan keltirilgan so‘zlarning shakldoshini aniqlay olsa-da, ularning mazmunini izohlay olmasa		2-1 ball
4. So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini farqlay olishi		5 ball
So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan biri bo‘lgan paronimlarni paronim bo‘lmagan so‘zlardan farqlay olsa		5 - 4 ball
So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra		3 - 1 ball

turlaridan biri bo'lgan paronimlarni paronim bo'lmagan so'zlardan qisman farqlay olsa		
So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan biri bo'lgan paronimlarni paronim bo'lmagan so'zlardan farqlay olmasa		0 ball
5. Matn tarkibidan eskirgan so'zlarni aniqlay olishi		5 ball
matn tarkibidan eskirgan so'zlarni aniqlab, ularni tarixiy va arxaik so'zlarga ajratib yoza olsa		5 ball
matn tarkibidan eskirgan so'zlarni aniqlab, ularni tarixiy va arxaik so'zlarga ajratishda biroz xatoliklarga yo'l qo'ysa		4-3 ball
matn tarkibidan eskirgan so'zlarni aniqlab, ularni tarixiy va arxaik so'zlarga ajrata olmasa		2-1 ball
Jami:		25 ball

O'quvchi to'plagan ball: _____

Tekshiruvchi o'qituvchi: _____ (imzo)